

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

TURKIY TILLARDA KO’YLAK VA RO’MOL SO’ZLARINING ETIMONI HAMDA NAVOIY ASARLARIDA QO’LLANILISHI

Nargizaxon Umarova

*Farg’ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

E-mail: nargizaxonumarova1971@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kiyim kategoriyasi doirasida turkiy tillardagi ko’ylak va ro’mol lug‘aviy birliklari misolida ular bilan bog’liq til tashuvchisi bilimlarini qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatish funksiyalari tahlil qilingan. Kiyim kategoriyasi a’zolaridan ko’ylak va ro’mol leksik birliklari orqali olam milliy lisoniy manzarasining tarixiy-badiiy ifodalariga xos jihatlar olib berilgan. Milliy til leksikonidagi yangi shakl va tushunchalarning paydo bo’lishi, konseptual birliklarning uslubiy differensiatsiyasiga ko’ra yuz bergan o’zgarishlar, lug’atlar hamda manbalarda ifodalangan konseptual birliklar semantik strukturasidagi farqli tomonlar yoritilgan.

Ushbu maqolada ko’ylak va ro’mol so’zining etimon ma’nosи, morfem strukturasi, shuningdek, kiyim kategoriyasi doirasida terlik, tarosu, o’tug so’zlarining tarixiy-morfemik tuzilishi, forscha ro’mol o’zlashmasining turkiy tillardagi variantlari (yog’lig’, burunchak, lachak) haqida fikr yuritilgan. Maqolada ko’ylak so’zi ma’no jihatidan yurak, ko’ngil, ko’krak so’zlar bilan bog’lanishi hamda so’z o’zagining kon (teri) ekanligi, ko’ylak so’zining asosiga taalluqli bu kabi etimon ma’no hozirda unutilganligi ham qayd etilgan.

Kalit so’zlar: etimon ma’no, variant, kategoriya, lingvokulturema, lug‘aviy ma’no, semantika, sema, etimologik lug’at.

Ko’pgina turkiy tillarda faol qo’llanuvchi ko’ylak so’zining manbayi turkiy tillardir. U O’rxun-Yenisey yozma manbalarida qayd etilmay, Mahmud Koshg’ariy lug‘atida ko’ylak, “Qipchoq tili lug‘ati”da komlak-ko’ylak, konglak-ko’ylak [Mutallibov, 1968: 220,222], XIV asr Xorazm manbalarida ko’ylak, Alisher Navoiy asarlarida ko’ngak, ko’nglak, ko’nglok kabi variantlarda uchraydi [Bafoyev,1991: 124].

Quyidagi jadval asosida ko’ylak so’zining eroniy va turkiy tillardagi variantlarini o’zaro qiyoslash mumkin.

Tillar	Ko’ylak so’zining ifoda shakllari
Qalmiq	Ko’ylak
Tojik	Kilək
hozirgi turkiy tillarda	Kuylak
hozirgi turkiy til lahjalarida	ko’ynak
uyg‘ur tilida	Keynək
uyg‘ur tilining lahjalarida	kogilyek, koilak, koinak, konak, koñlak, koñnak
qirg‘iz tilida	Keynək
turkman tilida	Koynek

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

qoraqalpoq tilida	<i>Koylek</i>
tatar tilida	<i>Kulmək</i>
boshqird tilda	<i>kuldək</i>
qozoq tilida	<i>kəylək</i>
turk tilida	<i>gomlek</i>

B.Bafoyev *ko ‘ylak* so‘zining etimoni haqida 2 ta farazni ilgari suradi:

1-faraz. So‘zning asosi qadimgi turkiy tildagi *ko ‘n – teri* so‘ziga borib taqaladi: *kon* – faqatgina ot terisi. Chunonchi *at koni* deydilar. Ba’zan bu so‘z odam terisiga nisbatan ham qo‘llanadi. Chunonchi, *aniç koni quridi* deyiladiki, *u o ‘ldi* demakdir, *ol konug qazishladi* – u ko‘ndan qayish kesdi. B.Bafoyev fikricha, bunda uning vazifa jihatidan o‘xhashligi – organizmni tashqi ta’sirlardan himoya qilishi asosga olinib, morfemik tarkibiga ko‘ra *ko ‘η+ig+la+k* ekanligi, bosh morfema oxiridagi *η* sonor undosh tovushining *m, l* ga o‘tishi turkiy tillardagi umumiy fonetik qonuniyat ekanligi ta’kidlanadi. So‘zning bu etimoni olimning o‘ziga ham asoslidek tuyuladi.

2-faraz. So‘zning asosi qadimgi turkiy tildagi *kommak* infinitiviga borib taqaladi: *komdi – ko ‘mdi* (komar, kommak). Bunda *ko ‘mmoq* fe’lining `berkitmoq`, `yashirmoq` ma’nolari asosida nomlangan bo‘lishi mumkin (*ko‘m+la+k*). Chunki *ko ‘ylak* gavda, tanani berkitib, yashirib turadi [Bafoyev, 1991: 125].

M.Asomiddinova tomonidan keltirilgan ma’lumotlar bu boradagi qarashlarga qisman oydinlik kiritadi. Uning aytishicha, *ko ‘ylak* qadimiylar turkiy so‘z bo‘lib, XI asrdan shu davrgacha bo‘lgan yozma manbalarda turli fonetik variantlarda uchraydi: *ər köñäkländi* – odam ko‘ylak kiydi [DLT, III, 418]; *kömläk, köngläk, kəglak, kuñlek*, hatto *konchak* [Attuhfat uz-zakiyat fil-lug‘at it-turkiya, 1968, 220-222] varianti ham uchraydi. “Devonu lug‘oti-t-turk”da *kön* – xom teri [DLT, III, 159] [Asomiddinova, 1981: 26] shaklida izohlangan.

Demak, teridan tikilgan yoki tayyorlangan *konglak* – libos so‘z yasovchi *la+k* hamda “Attuhfa” lug‘atida qayd etilgan *konchak* ham *cha+k* morfemalari orqali teridan qilingan kiyim va libos ma’nosini anglatgan.

“Этимологический словарь тюркских языков”[Sevortyan, 1974: 90]da *kəñlek* so‘zi ma’no jihatidan *yurak*, *ko ‘ngil*, *ko ‘krak* so‘zлari bilan bog‘lanishi aytiladi hamda so‘z o‘zagining *kon* (*teri*) ekanligi ta’kidlanadi. *Ko ‘ylak* so‘zining asosiga taalluqli bu kabi etimon ma’no hozirda unutilgan.

Bizning nazarimizda, XI asrda *ko ‘ylak* so‘zining asosi *kon* bilan birgalikda *teri* (*terinchäk*) so‘zi ham `ko‘ylak` tushunchasini ifodalash uchun parallel ravishda qo‘llangan. Lekin fundamental etimologik lug‘atlarda bu haqda ma’lumot yo‘q. Libos tagidan kiyiladigan ichki kiyim, ich *ko ‘ylak* – *terinchäk* (^xotin-qizlarning yengi yo‘q

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ich kiyimi``)dir [Mahmud Koshg‘ariy, 2016: 467]. Ich ko‘ylakning XI asrda ham borligi bu kiyimning qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Bu so‘zni kategoriya a’zolari ichida lingvokulturema sifatida qayd etish mumkin. Navoiy tilida *terinchakning* leksik varianti sifatida *terlik* so‘zi uchraydi:

*O’zbaki gulnori to ‘ndin kuydum, ammo o ‘lturur,
Lemui terlik aning ostidakim jonon kiyar [NSH].*

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham bir qator kiyim nomlari tarkibida *terlik* so‘zini qo‘llaydiki, bu so‘zning shoir davrida faol qo‘llanganligidan dalolat beradi: “Ma’lum kiyimlardan, misli *dastär-u qalpaq* va *navrozi-yu toppi* va *širdağ-u däkälä* va *yeläk-ü yağlıg* va *terlik-ü qur* singari narsalarning barini turkcha aytadilar”[Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”, 2017].

Kategoriya tarkibidagi asosiy tushunchaga (ko‘ylakka) xos etimon ma’no (ko‘ylakning *kon* – *teri* so‘zidan kelib chiqqanligi)ning unutilishi kiyim kategoriyasining forsiy va turkiy tillar tarixiy davrlarida iste’molda bo‘lgan kiyim tushunchasi bilan bog‘liq *tarozi* so‘ziga ham taalluqlidir. *Tarozi* so‘zining etimon ma’nosı – `kiyim osiladigan ip` demakdir. Bu so‘z eski o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘tib o‘zlashgan.

“So‘zning morfologik tarkibi *tar+os+u* bo‘lib, u *tar//tor* – osilgan, osiladigan kiyim va boshqa buyumlarni osib qo‘yish uchun ship yoki devorga ikki uchidan bog‘lab osib qo‘yiladigan yog‘och yoki buning o‘rniga devorga ikki o‘rinda temir qoziq qoqib, ularni birlashtirib turadigan yo‘g‘on ip yoki sim. Mana shu sim yoki ip ustiga kiyimlar osib qo‘yilgan. + *os* esa qo‘l tegirmon toshi (bunda *tarozi* ikki pallasining qo‘l tegirmonning ost, ust toshlariga o‘xshashligi asosga olingan) + u/i so‘z yasovchi affiksdir. Bunda so‘zning asl ma’nosı torga osilgan *oslar* (pallalar)” [Bafoyev, 1991:138] demakdir. *Taroz(u)i* va *taroziy* so‘zlari bir-biriga qay darajada yaqinligini aniq aytolmasak-da, ammo “Navoiy asarlari lug‘ati”da izohlanishicha, arabcha so‘z bo‘lgan *taroziy* so‘zining lug‘aviy ma’nosı `bir-biridan rozi bo‘lish, shod bo‘lish` [Navoiy asarlari lug‘ati, 1973, 597] ma’nosini anglatadi. Semantikasidagi *bir-biri* tushunchasining borligi *taroziy* so‘zining ham o‘zaro munosabatdagi ikki asosdan iboratligini anglatib turadi. `Rozi bo‘lish, shod bo‘lish` semasi esa bunga yana qo‘shimcha dalildir.

Kiyim//libos kategoriyasida ýtyg so‘zi ham (`dazmol`; andavaga o‘xshash temir [asbob], uni qizdiradilar va kiyimning chok, baxyalari va tuklarini bostirib silliqlaydilar”) [Mahmud Koshg‘ariy, 2016, 64] muhim nominativlardan sanaladi.

Bu o‘rinda yuqorida tahlil qilingan *terlik*, *tarozi* (*tar+os+u*), ýtyg so‘zlari kiyim kategoriyasining turkiy tillardagi madaniy xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi bilan ahamiyatlidir.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Navoiy asarlari tilida *ro’ymol*, *yog’lig*, *burunchak*, *lachak* singari *ro’mol* tushunchali leksik birliklar ham qo’llangan. Bu nomlar ayollar kiyim-boshining eng muhim qismlari sifatida qo’llanish faolligi bilan ajralib turadi. *Ro’ymol* so‘zi eski o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘tib o‘zlashgan bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tili va uning lahjalarida faol qo’llanadi. B.Bafoyevning aytishicha, O’rxun-Yenisey yozma manbalarida, Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida, “Tafsir”da, “Qipchoq tili lug‘ati”da qayd etilmagan. *Ro’mol* so‘zi tarixan qo’shma so‘z bo‘lib, u *ro’y-ro’* – yuz, bet va *mol* (molidan – surtmoq, artmoq ma’nolarini anglatuvchi) so‘zlaridan yasalgan. So‘zning bu shakldagi dastlabki ma’nosi `betni artadigan, betni surtagan, bet artgich` kabilar bo‘lib, `boshni berkitadigan, boshga bog‘laydigan, bosh bog‘lagich` ma’nolari keyinchalik paydo bo‘lgan [Bafoyev, 1991: 129]. Dastro‘molda esa artiladigan a’zolarga qo’l ham kiradi.

Qadimgi davrlarda turkiy tillarda *ro’mol* *burunchuq* deb yuritilgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida *burunchuq* ikki ma’noda qo’llangan: a) peshonabog‘ (*ro’mol*); b) boshga o‘raladigan, yopinadigan yopinchiq [Mahmud Koshg‘ariy, 2016, 479].

B.Rajabovaning qayd etishicha [Rajabova, 2018, 45-49], bu so‘z (*burunchak* – nozik ipdan to‘qilgan *ro’mol*) Alisher Navoiy ijodida ko‘p uchramaydi, shoir ko‘p o‘rinlarda *yog’lig* so‘zini qo’llagan. Bu so‘z (*burunchak*) Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida poetik timsol darajasiga ko‘tarilgan va ramziy ma’noda qo’llanib, hukmdorlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning buzilishiga sabab qilib ko‘rsatilgan.

Navoiy asarlarida ham bu so‘z *burunchuk//burunchak* shakllarida uchraydi. *Ro’molning turkiysi yovliq//jovliq*, eski o‘zbek tilida turkiycha varianti *yog’liqdir*. Ozarbayjon tilida *ro’mol bash yaylig*‘i deb yuritiladi. *Yog’liq* qozoqlarda *jaulıq*. qirg‘izlar shu tipdagи bosh kiyimini *kiyma elecheck* deyishadi. Ko‘pchilik turkiy til lug‘atlarida *yovliq* shaklida uchraydi. Ozarbayjon tilida *yoyliq*; qumiq tilida *yavluk*; tuva tilida *bosh yavlyk* (Tyurkskiye yazyski, II, 210, 400); qirg‘iz tilida *jooluq* – platok (Kirg.-rus., 261); uyg‘ur tilida *yag’liq* (Uyg‘.-rus., 775)[Asomiddinova, 1981:29].

B.Bafoyev adabiyotlar (Shoabdurahmonov, Baskakov, Malov, Budagov) [Bafoyev, 1991, 126]da bu so‘zning manbayi turkiy til ekanligi ko‘rsatilgani holda, uning etimoni borasida ma’lumotlar yo‘qligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, bu so‘z yasama (*lach+ak*) bo‘lib, *lach* eroniy til materiali va -*ak* turkiy ot yasovchi qo‘sishma *lachak* formasini hosil qilgan. Eroniy tillardagi *lach* so‘z-morfemasi inson tanasi a’zosi *lunj* va *lagom/ligom*ning arabiylashgan shakli *lijom* so‘zlari bilan bir umumiy asosga

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O’RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

egadir. Demak, “*lachak* so‘zi lach+ak morfologik tarkibiga ega bo‘lib, “lunjni bog‘lovchi” demakdir.

Turkiy tillarning qadimgi davrida *lachak* so‘zining muqobil varianti – *eyäk* so‘zi uchraydi. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida lachakka o‘xshash kiyim nomi *eyäk* so‘zining izohi (*eyäk* – xotinlar bosh yopinchiqlariga bog‘laydigan ip, bog‘ich) funksional jihatdan uning lachakka o‘xshashligini ko‘rsatadi. Agar forsiydagisi *lachak* so‘zi asosi *ligomda* ham, turkiy tildagi *eyäk(engak)*da ham `lunj` tushunchasining ifodalanishi inobatga olinadigan bo‘lsa, tarixan bu ikki kiyim nomlari bir xil vazifa bajargani ma’lum bo‘ladi. *Lachak* va *engak* so‘zlariga funksiyadosh *lokki* so‘zi ham tilning tarixiy bosqichlarida qo‘llangan. Bularidan *eyäk* boshqa variantlarga qaraganda qadimiyroqdir.

“Keksa ayollar boshidan ro‘mol tushib ketmasin uchun uning ustidan buklab-buklab o‘raladigan ro‘mol *lokki* deyiladi. Hozirgi kunda Buxoro, Samarqand va Toshkentda lokki o‘rniga *peshonabog‘* qo‘llaniladi” [Asomiddinova, 1981: 30].

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, M.Asomiddinova o‘z lug‘atida *lachak* va *lokki* so‘zlarini deyarli bir xil izohlagan [Asomiddinova, 1981: 30,53,54] bo‘lishiga qaramay, ularning bir tushuncha ifoda etishiga e’tibor qaratmagan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bafoyev B. Ko‘hna so‘zlar tarixi. –Toshkent: FAN, 1991. – B.124.
2. Attuhfat uz-zakiyat fil-lug‘at it-turkiya / S.Mutalibov nashrga tayyorlagan. – Toshkent, 1968. – B. 220-222.
3. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: FAN, 1981. – B.26; – B.29; – B.30; – B. 30, 53, 54.
4. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazylkov. – Moskva: Nauka, 1974. – S.90.
5. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘oti-t-turk. I jild. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B.467; – B.64; – B.479; – B.108.
6. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
7. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. –B.597.
8. Rajabova B. Koshg‘ariy va Navoiyda ayrim so‘zlarning mushtarak talqini // O‘zbek tili va adabiyoti, 2018. – №6. – B.45-49.
9. Maqsud, A. (2020). ANOTHER PECULIARITY IN THE COMPOSITION OF NOMAS. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(12), 62-65.
10. ASADOV, M., & JAMOLOVA, S. (2022, February). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF LOVE IN THE POETRY OF ALISHER NAVOI. In Conference Zone (pp. 331-333).